



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**

Google Scholar



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS



KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI

I. R. Berdikulova

SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrası o'qıtuvchısı, PhD

E-mail: irodaberdikulova82@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korporativ boshqaruv tizimida ESG (Environmental, Social, Governance — atrof-muhit, ijtimoiy masalalar, boshqaruv) tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ESG tamoyillarining kompaniyalar moliyaviy ko'rsatkichlariga, investitsiya jalb qilish imkoniyatlariga va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganilgan. Xalqaro tajriba va O'zbekiston kontekstida ESG integratsiyasining iqtisodiy samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ESG tamoyillarini izchil joriy etish kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsiya xatarlarini kamaytiradi hamda barqaror iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: ESG, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, investitsiya, iqtisodiy tahlil, atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat, korporativ boshqaruv kodeksi, moliyaviy samaradorlik.

Abstract. This article presents an economic analysis of implementing ESG (Environmental, Social, Governance) principles in corporate governance systems. The study examines the impact of ESG principles on corporate financial performance, investment attraction capabilities, and long-term sustainable development. The economic efficiency of ESG integration is evaluated in the context of international experience and Uzbekistan. The findings indicate that consistent ESG implementation enhances corporate competitiveness, reduces investment risks, and contributes to sustainable economic growth.

Keywords: ESG, corporate governance, sustainable development, investment, economic analysis, environment, social responsibility, corporate governance code, financial efficiency.

Аннотация. В данной статье проведён экономический анализ внедрения принципов ESG (Environmental, Social, Governance — экология, социальная ответственность, управление) в систему корпоративного управления. Исследовано влияние ESG-принципов на финансовые показатели компаний, возможности привлечения инвестиций и долгосрочное устойчивое развитие. Оценена экономическая эффективность интеграции ESG в контексте международного опыта и Узбекистана. Результаты показали, что последовательное внедрение ESG повышает конкурентоспособность компаний, снижает инвестиционные риски и способствует устойчивому экономическому росту.

Ключевые слова: ESG, корпоративное управление, устойчивое развитие, инвестиции, экономический анализ, экология, социальная ответственность, кодекс корпоративного управления, финансовая эффективность.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyat va boshqaruv sifati kabi omillar bilan ham belgilanmoqda. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari so'nggi o'n yillikda xalqaro korporativ boshqaruv amaliyotining ajralmas qismiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Mas'uliyatli investitsiya tamoyillari" (UN PRI) doirasida 2006-yildan beri ESG mezonlari investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham iqtisodiy islohotlar jarayonida korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Korporativ boshqaruv kodeksi" [1] mamlakatda ESG tamoyillarini joriy etish uchun muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Biroq ESG tamoyillarini amalda qo'llashning iqtisodiy samaradorligi masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan.



TADQIQOTNING MAQSADI

Korporativ boshqaruv tizimida ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy ta'sirini kompleks tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitida ularni qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorligi masalasi ko'plab xalqaro tadqiqotlarda o'rganilgan. G. Friede, T. Busch va A. Bassen (2015) tomonidan o'tkazilgan 2200 dan ortiq empirik tadqiqotlarning meta-tahlili shuni ko'rsatdiki, kompaniyalarning ESG ko'rsatkichlari va moliyaviy natijalari o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. R. Eccles, I. Ioannou va G. Serafeim (2014) Harvard Business School tadqiqotida "yuqori barqarorlik" kompaniyalarining 18 yillik davrda "past barqarorlik" kompaniyalariga nisbatan aksiyalar bozorida sezilarli ustunlikka ega bo'lganini aniqlashgan.

Shu bilan birga, MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston kontekstida ESG tadqiqotlari nisbatan kam. A. Abramov va boshqalar (2017) Rossiya kompaniyalari misolida korporativ boshqaruv sifati va kompaniya qiymatining o'zaro bog'liqligini o'rganishgan. O'zbekistonda esa S. G'ulomov (2019), B. Tursunov (2020) kabi olimlar korporativ boshqaruv masalalarini tadqiq qilishgan, ammo ESG tamoyillarining iqtisodiy samaradorligiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar deyarli uchramaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanilgan. Ma'lumotlar manbasi sifatida xalqaro tashkilotlar (MSCI, Bloomberg, S&P Global) ESG reytinglari, O'zbekiston fond birjasi ma'lumotlari va kompaniyalar moliyaviy hisobotlari ishlatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

ESG tamoyillarining iqtisodiy ta'siri:

ESG va moliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, ESG tamoyillarini faol joriy etgan kompaniyalar qator moliyaviy afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchidan, kapital qiymatining pasayishi kuzatiladi. MSCI (Morgan Stanley Capital International) ma'lumotlariga ko'ra, yuqori ESG reytingiga ega kompaniyalar o'rtacha 0,5–1,2 foiz punktga past kredit stavkalarida qarz mablag'larini jalb qilish imkoniyatiga ega. Bu holat investorlarning bunday kompaniyalardagi xatarlarni pastroq baholashi bilan bog'liq.

Ikkinchidan, operatsion samaradorlikning oshishi qayd etiladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga rioya qilish energiya tejash va resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini 5–15 foizga kamaytirishi mumkin. Masalan, Unilever kompaniyasi ESG strategiyasini qo'llash natijasida 2010–2020-yillarda energiya xarajatlarini 30 foizga qisqartirishga erishgan.

Uchinchidan, kompaniya aksiyalari qiymatining barqaror o'sishi ta'minlanadi. S&P Global tadqiqotlariga ko'ra, ESG indekslariga kiritilgan kompaniyalar aksiyalari 2015–2023-yillar davomida an'anaviy indeksarga nisbatan yillik o'rtacha 2–3 foiz yuqori daromadlilik ko'rsatgan.

ESG va investitsiya jalb qilish. Global barqaror investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Global Sustainable Investment Alliance (GSIA) ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo bo'yicha ESG mezonlariga asoslangan investitsiyalar hajmi 35,3 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu 2016-yildagi ko'rsatkichdan 55 foizga ko'p. Bu tendensiya ESG tamoyillarini joriy etmagan kompaniyalar uchun investitsiya jalb qilish imkoniyatlarining nisbatan cheklanishini anglatadi.

Mamlakatimizda bu masala ayniqsa dolzarbdir. Mamlakatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi doirasida korporativ boshqaruv standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

ESG xatarlarini boshqarishning iqtisodiy samarasi. ESG tamoyillarini joriy etishning muhim iqtisodiy afzalliklaridan biri xatarlarni boshqarish tizimini takomillashtirish bilan bog'liq. Atrof-muhit bilan bog'liq omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari, ijtimoiy yo'nalishdagi omillar, xususan, mehnat munosabatlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlik, shuningdek, boshqaruv yo'nalishidagi shaffoflik va komplayens talablariga rioya qilish kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Harvard Business School tadqiqotchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, ESG xatarlarini boshqarish tizimiga investitsiya kiritgan kompaniyalarda moliyaviy tavakkalchiliklarni o'rtacha 20–30 foizga kamaytirish imkoniyati shakllanadi.



ESG tamoyillarini joriy etishning xarajat-foйда tahlili. ESG tamoyillarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholashda xarajat-foйда tahlili muhim ahamiyatga ega. Kompaniyalar uchun ESG tizimini joriy etish bilan bog'liq asosiy xarajatlarda quyidagilarni o'z ichiga oladi: ESG strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlari (konsalting xizmatlari, ichki tuzilmalarni qayta tashkil etish), ESG hisobdorlik tizimini joriy etish xarajatlari (monitoring, audit, hisobot tayyorlash), ekologik standartlarga moslashish xarajatlari (yangi texnologiyalar, uskunalar, energiya samaradorligi), ijtimoiy dasturlar xarajatlari (xodimlar rivojlanishi, jamoaviy loyihalar) hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish xarajatlari (mustaqil direktorlar, komplayens tizimi).

McKinsey & Company tadqiqotlariga ko'ra, ESG joriy etishning dastlabki bosqichida kompaniyalar daromadining 0,5–2,0 foizi miqdorida qo'shimcha xarajatlarda yuzaga keladi. Biroq o'rta va uzoq muddatli istiqbolida bu investitsiyalar o'zini oqlaydi: operatsion xarajatlarning 10–20 foizga kamayishi, doimiy jarimalar xavfining sezilarli pasayishi, xodimlar samaradorligining 15–25 foizga oshishi va yangi bozorlar hamda mijozlar segmentlariga kirish imkoniyatlari kengayishi kuzatiladi. Shunday qilib, ESG investitsiyalarining o'rtacha qaytish muddati 3–5 yilni tashkil etadi.

O'zbekistonda ESG joriy etishning iqtisodiy istiqbollari. O'zbekistonda

ESG tamoyillarini joriy etish bir qator iqtisodiy imkoniyatlarni taqdim etadi. Birinchidan, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, YEIB — Yevropa investitsiya banki, OIB — Investitsiya banki boshqarmasi) bilan hamkorlikda ESG mezonlariga mos loyihalarni moliyalashtirishda imtiyozli shartlar olish mumkin. Ikkinchidan, fond bozorini rivojlantirish va korporativ obligatsiyalar chiqarish orqali "yashil moliyalashtirish" vositalaridan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq ESG joriy etishda bir qator institutsional va tashkiliy cheklovlar mavjud: kompaniyalar hisobdorligining xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi, ESG bo'yicha malakali mutaxassislar yetishmasligi, kichik va o'rta biznes uchun ESG talablarini bajarishning yuqori xarajatlari hamda ESG madaniyatining hali yetarlicha shakllanmaganligi kabilarda. Bu muammolarni hal etish uchun bosqichma-bosqich yondashuv zarur bo'lib, dastlab yirik davlat korporatsiyalari va bank sektoridan ESG amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga qaratilgan asosiy islohotlar dasturlaridan biri sifatida ESG tamoyillarini milliy darajada joriy etish uchun muhim asos yaratdi.¹ Mazkur strategiya doirasida 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko'prog'iga yetkazish, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish hamda "yashil" ish o'rinlarini yaratish kabi maqsadlar belgilangan. Bu maqsadlarga erishishda korporativ sektorning ESG tamoyillariga amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Toshkent fond birjasida ro'yxatga olingan kompaniyalar uchun ESG hisobdorlik talablarini joriy etish investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy kapital oqimini kuchaytirish uchun maqsadga muvofiq yo'nalishlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi: birinchidan, ESG tamoyillarini korporativ boshqaruvga joriy etish kompaniyalarning moliyaviy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro empirik tadqiqotlar ESG reytinglari va kompaniyalar rentabelligi, aksiyalar daromadliligi hamda kapital qiymati o'rtasidagi statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Ikkinchidan, ESG integratsiyasi investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Dunyo bo'yicha barqaror investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi ESG tamoyillarini joriy etmagan kompaniyalar uchun kapital bozorlarida raqobatbardoshlikning pasayish ehtimolini keltirib chiqaradi. Uchinchidan, ESG xatarlarini boshqarish tizimi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv xatarlarini o'z vaqtida aniqlash va boshqarish katta moliyaviy tavakkalchiliklarning oldini oladi. To'rtinchidan, O'zbekiston sharoitida ESG tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish zarur bo'lib, dastlab yirik korporatsiyalar va bank sektori uchun ESG hisobdorlik standartlarini belgilash, keyin esa kichik va o'rta biznesga kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tavsiya sifatida O'zbekistonda ESG tamoyillarini samarali joriy etish uchun quyidagilar zarur: milliy ESG standartlari va reytinglash tizimini ishlab chiqish; kompaniyalar uchun ESG hisobdorlik talablarini bosqichma-bosqich joriy etish; ESG sohasida kadrlar tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish; "yashil moliyalashtirish" vositalarini (yashil obligatsiyalar, ESG fondlari) rivojlantirish.

Kelajakda ESG tamoyillarining iqtisodiy ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish uchun O'zbekiston kompaniyalari bo'yicha panel ma'lumotlarga asoslangan ekonometrik tadqiqotlar olib borish maqsadga



muvofiqdir. Shuningdek, sanoat tarmoqlari kesimida ESG ta'sirining farqli jihatlari, kichik va o'rtta biznes uchun ESG integratsiyasining optimal modellari hamda raqamli texnologiyalarning ESG monitoring tizimlaridagi roli kabi yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Korporativ boshqaruv kodeksi. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan. // Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. URL: <https://gov.uz/oz/davaktiv/sections/view/6336>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori. "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4539502>
3. Friede, G., Busch, T., & Bassen, A. (2015). ESG and financial performance: aggregated evidence from more than 2000 empirical studies. *Journal of Sustainable Finance & Investment*, 5(4), 210–233. DOI: 10.1080/20430795.2015.1118917.
4. Eccles, R. G., Ioannou, I., & Serafeim, G. (2014). The impact of corporate sustainability on organizational processes and performance. *Management Science*, 60(11), 2835–2857. DOI: 10.1287/mnsc.2014.1984.
5. Global Sustainable Investment Alliance. (2023). *Global Sustainable Investment Review 2022*. Global Sustainable Investment Alliance.
6. Principles for Responsible Investment. (2006). Principles for Responsible Investment. PRI Association.
7. MSCI ESG Research LLC. (2023). ESG Ratings Methodology. MSCI Inc.
8. S&P Global Sustainable1. (2023). S&P Global ESG Scores Methodology. S&P Global.
9. McKinsey & Company. (2020). The ESG premium: New perspectives on value and performance. McKinsey & Company.
10. Abramov, A., Radygin, A., & Chernova, M. (2017). State-owned enterprises in the Russian market: ownership structure and their role in the economy. *Russian Journal of Economics*, 3(1), 1–23.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>